

Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va yong'in xavfsizligini ta'minlash" mavzusida profilaktik davra suhbatlari tashkil etildi

□ O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida "Xalqaro tabiiy ofatlarni kamaytirish kuni" munosabati bilan profilaktik davra suhbatlari davom ettirildi.

□ Bu galgi davra suhbatida Mirzo Ulug'bek tuman Favqulodda vaziyatlar bo'limi inspektori Nuriddin Burxonov ishtirok etib, talabalar hamda institut xodimlariga mavzuga doir muhim masalalar yuzasidan ma'lumotlar berishdi.

□ O'z o'rnida, ishtirokchilar tomonidan berilgan savollarga mutaxassislar tomonidan atroflicha javoblar berildi.

□ O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida "Besh tashabbus olimpiadasi" sport musobalarining institut

bosqichidavom etmoqda.

Bugun futbol musobaqalari bo'lib o'tdi. Keskin va murossasiz bahslarga boy bo'lgan bugungi musobaqalarning yakuniy natijalariga ko'ra:

□ 1-o 'rin Kino televideniye va radio san'ati fakulteti jamoasiga;

□ 2-o'rin Xalq ijodiyoti fakulteti jamoasiga;

□3-o 'rin esa Teatr san'ati fakulteti jamoasiga nasib etdi.

□Musobaqalar davom etmoqda.

□ 0'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida "Zakovat" ligasi 2-tur bahslari bo'lib o'tdi

✂□ Bugun 0'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Yoshlar ittifoqi Boshlang'ich tashkiloti tomonidan talabalar o'rtasida an'anaviy ravishda o'tkazib kelinayotgan «Zakovat» intellektual o'yini oktabr oyi 2-tur bahslari bo'lib o'tdi. Bunda 4 ta fakultetdan jami 9 ta jamoa ishtirok etdi.

→□→□Eslatib o'tamiz g'olib jamoa har oyning so'ngida aniqlanadi va ko'chma kubok taqdim etiladi.

□ Eslatma: «Zakovat» turniri har haftaning shanba kuni soat 14:00 da boshlanadi. Jamoalar soni chegaralanmagan, barcha

talabalarni faol ishtirok etishga chorlaymiz.

Adiblar xiyoboni – ma'naviyat maskani

□ O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti talabalarining Adiblar xiyoboniga tashriflari davom etmoqda.

Bugun Muhammad Yusuf haykali qoshida institut professori, taniqli shoira Sayyora To'ychieva shoir ijodiy merosini borasida «Vatan mening shamsimohim» mavzusida mahorat darsi o'tdi.

Unda O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi raisi o'rinbosari Gayrat Majid, shoirlar Muhiddin Abdusamad, Mansur Jumayev, Doniyor Mirzo va Kutubxona-axborot faoliyati fakulteti talabalari ishtirok etishdi.

Dars so'ngida ijodkor talabalar o'z ijodlaridan namunalar o'qidilar.

Mustaqillik kuychisi Muhammad Yusuf ijodiyda madaniyat va san'at sohasi borasidagi she'rlar, maqolalar va tarjimalar haqida talaba yoshlarning fikr-mulohazalarini tinglandi.